“O‘G‘UZNOMA” DOSTONIDA TO‘QQIZ RAQAMINING KOMPOZITSION-MIFOLOGIK FUNKSIYASI

Xaydarova Zahro Abbosxon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

e-mail: haydarovazahro2509@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda “O‘g‘uznoma” dostonining kompozitsion tuzilishiva undagi to‘qqiz raqamining turkiy mifologiyadagi ramziy ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Doston lug‘aviy tarkibining uch qatlamliligi va uning boshqa xalq eposlari (Gilgamish, Alpomish) bilan tipologik o‘xshashligi ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida to‘qqiz raqami dostonda shakl (matn tuzilishi) va mazmun (mifologik tasavvur) darajalarida bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi, ya’ni dostonning o‘zi o‘z mazmunini o‘z shakli orqali takrorlashi bir-biri bilan uyg‘unlashgan “ikki tomonlama kodlash” tamoyili asoslanadi.

Kalit so‘zlar: O‘g‘uznoma, to‘qqiz raqami, kompozitsiya, son mifologiyasi, leksik qatlam, qahramonlik eposi.

Abstract. This thesis analyzes the relationship between the compositional structure of the “Oghuzname” epic (9 lines, 42 stanzas) and the symbolic meaning of the number nine in Turkic mythology. It also examines the three-layered lexical composition of the epic and its typological affinity with other folk epics such as “Gilgamesh” and “Alpomish.” The study concludes that the number nine operates simultaneously at the level of form (textual structure) and content (mythological worldview), so that the epic effectively re-encodes its own meaning through its own shape - a principle of “double coding” in which form and content mutually reinforce one another.

Keywords: Oghuzname, number nine, composition, numerical mythology,

lexical layer, heroic epic.

Kompozitsion jihatdan doston 9 qator, 42 banddan (I–XLII) tashkil topgan bo‘lib, Baxtiyor Isabek tabdilida asl uyg‘ur matni bilan bir qatorda o‘zbek tilidagi mazmuni ham berilgan. Boblarni mazmuniy jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin: I-II bandlar – tug‘ilish va voyaga yetish; III-VI bandlar – qiat (karkidon) bilan kurash; VII-XI bandlar – ikki ayol bilan tanishish, to‘y va olti o‘g‘ilning tug‘ilishi; XII-XIV bandlar – siyosiy farmon va Oltin Qog‘on bilan muzokaralar; XV-XIX bandlar – Urum qog‘onga qarshi yurish; XX-XXXII bandlar — qal’alarni zabt etish va qavmlarga nom berish; XXXIII-XXXV bandlar – qo‘shni yurtlarni zabt etish; XXXVI-XXXVII bandlar – Ulug‘ Turkning tushi va vasiyati; XXXVIII-XLII bandlar – oltin yoy, kumush o‘qlar, qurultoy va yurt taqsimi.

Dostonning 9 qatordan tashkil topganligi tasodifiy emas, balki chuqur ramziy asosga ega. Turkiy mifologiyada 3, 7, 9, 40 kabi raqamlar afsonaviy qudratga ega ramziy sonlar hisoblangan. Abulg‘oziy Bahodirxon “Shajarayi turk”da “Hech nimarsaning martabasi to‘qqizdin yuqori bo‘lmas, nihoyati to‘qqiz turur”, deb naql keltiradi. Mirzo Ulug‘bek esa mo‘g‘ul shu’basining aynan to‘qqiz nafar bo‘lganini Mo‘g‘ulxon, Qoraxon, O‘g‘uzxon, Kunxon, Oyxon, Yulduzxon, Menglixon, Tengizxon, Elxon sanab o‘tadi. Keyinchalik “to‘qqiz o‘g‘iz” birikmasi mustaqil atama sifatida ham keng qo‘llanilgan: Kultegin bitigida “To‘qqiz o‘g‘iz xalqi o‘z xalqim edi” deyiladi. Hattoki Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”ida to‘qqiz tug‘li xon atamasiga alohida ta’rif berilib, xonning qaramog‘idagi tug‘ (bayroq) sonining to‘qqizdan oshirilmagani qayd etiladi.

Bizningcha, bu uch dalilni (matn tuzilishidagi 9 qator, mo‘g‘ul shu’basining 9 nafarligi, tug‘ sonining 9 dan oshmasligi) yonma-yon qo‘yib ko‘rib chiqish alohida bir xulosaga olib keladi: bu yerda to‘qqiz raqami shunchaki takrorlanuvchi motiv emas, balki matnning o‘zini tashkil etuvchi tuzilmaviy tamoyil darajasiga ko‘tarilgan. Boshqacha aytganda, doston to‘qqiz haqida hikoya qilib qolmay, o‘zi ham to‘qqiz

asosida qurilgan mazmun bilan shakl bir-birini takrorlaydi va mustahkamlaydi. Zamonaviy matn nazariyasi nuqtai nazaridan bunday hodisani “ikki tomonlama kodlash” (double coding) deb atash mumkin: raqam bir vaqtning o‘zida ham kompozitsion vosita, ham mifologik-mazmuniy belgi vazifasini bajaradi. Bu, “O‘g‘uznoma” muallifi yoki muallif-tuzuvchisining tasodifiy emas, balki ongli badiiy-mafkuraviy niyat bilan ish tutganidan dalolat beradi.

Dostonning leksik qatlami ham uning qadimiyligidan dalolat beradi. Baxtiyor Isabek tabdilidagi 100 dan ortiq turkiy so‘zni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin: birinchisi hozirgi o‘zbek, turkman, qozoq tillarida saqlanib qolgan so‘zlar (adaq – oyoq, beduk – katta, kun – quyosh); ikkinchisi – faqat ba’zi turkiy tillarda uchraydigan so‘zlar (qiat – karkidon, muran – daryo); uchinchisi – hozir umuman ishlatilmaydigan arxaik shakllar (napsiqi – farishta, buyan – olijanoblik, qag‘an – xoqon). Bizningcha, bu uch qatlamlilik ham yuqorida ta’kidlangan “ikki tomonlama kodlash” g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi: xuddi to‘qqiz raqami shakl va mazmunni bog‘lagani kabi, leksik qatlamlar ham matnning turli tarixiy davrlarda qatlam-qatlam shakllanganini til darajasida “yozib qoldirgan” — til o‘zi ham bir tarixiy hujjatga aylangan.

“O‘g‘uznoma”ning shakli, g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy vositalari jihatidan xalq qahramonlik eposlariga (Gilgamish, Alpomish, Rustamxon) yaqinligi ham e’tiborga molik: afsonaviy tug‘ilish, yovuz maxluq bilan jang (qiat bilan kurash Gilgamishning samoviy buqa bilan jangini yodga soladi), g‘alaba kabi umuminsoniy epik sxema saqlanadi. Farqi shundaki, “O‘g‘uznoma”da boshqa eposlarga qaraganda siyosat va davlat qurish funksiyasiga ancha ko‘proq e’tibor qaratilgan. Bizningcha, aynan mana shu farq, ya’ni umumepik sxemaning siyosiy-davlatchilik mazmuni bilan to‘yintirilishi to‘qqiz sonining tuzilmaviy roli bilan uzviy bog‘liq. Agar boshqa eposlarda son-sanoq ko‘proq bezak vazifasini bajarsa, “O‘g‘uznoma”da u davlat va qabila tuzilishining o‘zini ramziy tarzda tashkil etuvchi asosga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, “O‘g‘uznoma”dagi to‘qqiz raqami oddiy takrorlanuvchi motiv emas, balki matnning kompozitsion arxitekturasi, mifologik dunyoqarashi va hatto til qatlamlarini bir-biriga bog‘lovchi markaziy tuzilmaviy tamoyildir. Bu kuzatuv kelgusida boshqa turkiy yozma yodgorliklardagi son simvolikasini qiyosiy o‘rganish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘g‘uznoma. Qadimgi bitiklar. Nashrga tayyorlovchi: Baxtiyor Isabek. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 40 b.

2. Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1990. – 192 b.

3. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon, 2004. – 352 b.

4. Mahmud Qoshg‘ariy. Devoni lug‘atit turk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 37-b.